



Lazgi, muhabbat va qalb kuychisi

Izzatillo Maxsudov

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“San’atshunoslik” ta’lim yo’nalishi 4 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek milliy raqs san'atining ritmik jihaddan tez, qadim tarixga borib taqaluvchi, YUNESKOning nomoddiy madaniy merosiga kirgan hamda bugungi kunda uning nomini butun dunyoga tanitish va targ'ib qilish maqsadida “Lazgi-muhabbat va qalb raqsi” deb nomlangan balet hamda lazgi tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: lazgi, balet, baletmeystr, ijod, temporitm, jo'shqinlik, muhabbat, qalb, raqs.

“Milliy raqs san'atimiz tarixida alohida o'rin egallaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, uning gultoji bo'lgan “Lazgi” raqsi o'zining chuqur hayotiy falsafasi, betakror ijro usuli va jozibasi bilan nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham keng shuhrat qozongan”.

Sh. Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. “San'at” keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. San'at



hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. "San'at" tushunchasi insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati, hamda uning natijasi sifatida vujudga kelgan jami narsalar tushuniladi, ya'ni, go'zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqadordir.

San'atning ikki turi farqlanadi: amaliy va badiiy (nafis). Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi. Ba'zi san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa-ifoda san'at kompozitor ohanglar orqali kechinmalarni ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi. Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari bo'lib, unda biror manzara, holat musavvir qalbini junbishga keltirib, qalbida muayyan kechinmalarni qo'zg'atadi va musavvir o'sha manzarani rang-tasvirga muhrlaydi. Shu tariqa san'at asarlari ruhiyatimizga oziq beradi. San'atning ta'siri inson uchun estetik zavq-shavq manbai; inson hayotiga go'zallik baxsh etadi; odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi. Hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi hamdir. Hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi. Tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, yomonlikdan nafratlanishga chorlaydi. Odamlar orasidagi ma'naviy ko'prik, muloqot vositasi bo'lib, odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi. San'at jamiyat ma'naviy hayotining boshqa hodisalari (fan, mafkura, axloq) ma'lum darajada bog'liqdir. San'atning maqsadi dunyoni badiiy o'zlashtirish, odamga lazzat baxsh eta oladigan, uni ma'naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo'li bilan kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Inson san'atdan estetik zavq, bitmas-tuganmas ijodiy kuch-qudrat oladi va shu ma'noda san'at ma'naviy



yuksalishning eng ta'sirchan quroliga aylanadi, biroq eng ahamiyatli jihati shundaki, u inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalq raqs san'ati uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ijodkor xalqimiz tomonidan yillar osha yaratilgan raqslar milliy raqs san'atining noyob durdonalari sanalib kelmoqda. O'zbek raqs daholari yaratgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak mumtoz raqslar xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, kurashchanlik, go'zal xulq ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam berib kelmoqda. Kelajak avlodni voyaga yetkazish, xalq orasida haqiqiy insoniylik munosabatlarini shakllantirishda o'zbek xalqining merosi bo'lgan bugungi kunda muhim estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Inson tarbiyasi estetik, ahloqiy-madaniy tarbiya sohalari bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek raqs me'rosini o'zlaridan oldingi avlodlardan qabul qilib, uni o'nlab yillar va asrlar mobaynida ko'z qorachig'idek saqlab kelgan ko'pgina ijrochilarning nomlari ma'lum. Raqs san'ati asoschilari Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ahmadjon Umurzoqov, Usta Olim Komilov, aka Buxor, Qimmatxon Sultonova, Sharofat To'rayeva, Tamaraxonim kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o'tgan o'nlab taniqli raqs ustalarining nomlari mashhur.

Raqs san'at turlari ichida o'ziga xos mazmun va chuqur ma'noga egaligi bilan ajralib turadigan, xalq qalbiga yaqin beqiyos tur borki, u ham bo'lsa betakror raqs san'atidir. Nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyo xalqlari orasida raqs san'atining gultoiji hisoblanmish lazgi raqsi xalqimizning qadim tarixini, boy madaniyati va ma'naviyatini ko'rsata oladigan go'zal san'at turi hisoblanadi. Lazgi raqsining payda bo'lish tarixi, rivojlanib sayqal topishi va taraqqiyot yo'lini o'rganish uzoq yillar davomida san'atshunoslik ilmining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, davr va zamon o'tsahamki o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shuningdek, lazgining orginal ijro uslublari, jozibadorligi, mazmun-mohiyati bilan farqlanadigan turlari mavjud. Uning ochilmagan sirlari bir talay.



Lazgi o‘z eliga, o‘z beshigiga ega va u mangukka daxldordir. Xorazm san’ati va madaniyati to‘g‘risida, xususan lazgi san’ati haqida ilk ma’lumotlar va mantiqiy xulosalarni olishimiz mumkin bo‘lgan dastlabki asarlar - Gerodotning “Tarix”, Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-ada” asarlari ko‘plab olimlarning ilmiy ishlari uchun foydali manbalar hisoblanadi. Shuningdek, S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm”, “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”, Iso Jabborovning “Ko‘hna xarobalar siri”, T.Qilichevning “Xorazm xalq teatri”, V.I.Abdiyevning “Qadimgi sharq tarixi”, M.Rahmonovning “O‘zbek teatrining tarixi” va Xorazm Ma’mun akademiyasi arxivlarida saqlanayotgan qo‘lyozmalari ham katta ahamiyatga ega. Xususan, “Avesto”, Gerodotning “Tarix” va Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida raqslarning kelib chiqish va shakllanishini bevosita ibtidoiy davrdagi ov jarayonlariga, xalqlar o‘rtasidagi an’ana va urf-odatlariga bog‘lagan holda ma’lumotlar keltirilgan. Sovet Ittifoqi davrida lazgining shakllanishiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga O‘zbekiston xalq artisti, taniqli ustoz baletmeysterlar Tamaraxonim va Gavhar Rahimova, shu bilan birga Anash Cho‘loq, Raviya Otajonovlarning lazgini sahna raqsiga aylantirilishidagi sa’y-harakatlari asos bo‘lgan. Bugungi kunda xorazm raqs maktabi jumladan lazgi 2019 yilning 12 dekabr kuni Kolumbiyaning Bogota shahridan “Xorazm raqsi — lazgi” nomzodnomasi YuNESKO representativ ro‘yxatiga kiritildi. Shundan so‘ng esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.09.2020 yildagi PQ-4843-sonli “Lazgi” xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida qarori imzolandi. Buning barchasi esa qadimiy tarixga ega lazgi raqs san’atining dunyoga yuz tutishi uchun bir zamin yaratilishi edi.

2021-yil 5-sentyabr. Shu sana Alisher Navoiy nomidagi davlat Akademik katta teatrida “Lazgi — muhabbat va qalb raqsi” nomli balet ilk marta namoyish etilgan kun sifatida muhrlanib qoldi. Bu premyera YUNESKO homiyligida bo‘lib o‘tdi hamda



professional hamjamiyatning yuksak e'tirofi va bahosiga sazovor bo'ldi. Ushbu modern janrida sahnalashtirilgan spektakl Berlin milliy opera va balet maktabi bitiruvchisi, Dortmund teatri bosh baletmeysteri NRW Juniorballet Dortmund rahbari, balet bosh xoreografi Raul Raymondo Rebek tomonidan sahnalashtirildi. To'rt sahna ko'rinishidan iborat librettoning birinchi fasli "Ipak yo'li vohasi" deb nomlangan. Rejisser "Lazgi" ning o'tmishi va an'analarini bir ayol timsolida mujassam etadi hamda uni "Qalb" deb ataydi. Raqs va madaniyatga bo'lgan muhabbat tarixining bardavomligi, asrlar sinoviga bardosh berib bugungi kungacha yetib kelgan noyob qadriyatlari insoniyatni hamon hayratga soladi. Buyuk Ipak yo'lida tug'ilgan bu Muhabbat bir tomondan ikki qalbnining sevgi qissasi bo'lsa, boshqa tarafdin raqs va musiqaga bo'lgan samoviy ishqdir.

Mazkur balet spektakl juda ko'p ijodiy safarlarda bo'ldi jumladan Birinchi bekat - Dubai Opera. Uning zafarli yurish qilishiga ishonchim komil. Shubhasiz, bu mamlakatimiz san'atining salohiyatini kengaytirish, boy madaniyatini namoyon etish va O'zbekiston imijini yanada yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi", Said Mirziyoyeva.

Dubayda «Expo-2020» butunjahon ko'rgazmasi doirasida unda so'nggi yillarda mamlakat ilmiy va iqtisodiy yutuqlari, madaniy merosi va sayyohlik salohiyati, shuningdek, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish rejasi, investitsiya imkoniyatlari keng xalqaro jamoatchilikka namoyish etilayotgan O'zbekiston Milliy paviloni o'z ishini amalga oshirmoqda. Dubaydagi butunjahon ko'rgazmasi faoliyati davomida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi O'zbekiston Milliy paviloni bilan hamkorlikda mamlakat madaniy va sayyohlik salohiyatini xalqaro maydonda ilgari surishga qaratilgan qator tadbirlarni taqdim etdi. Navbatida, xalqaro auditoriyaga o'zbek xalqining asl an'analarini namoyish etgan Xorazm raqsining mutlaqo yangi talqini taqdim etildi. "Lazgi – muhabbat va qalb raqsi" baletining sahnalashtirilishi O'zbekiston baletini yangi bosqichga olib chiqdi va ilk bor dunyo bo'ylab sayohatini boshladi. Birinchi marta O'zbekistonning eng mashhur raqslaridan biri, madaniy meros va tarixi "Dubai Opera" ko'p formatli san'at markazi



sahnasida namoyish etildi. Xoreograf Raymondo Rebek tomonidan sahnalashtirilgan hamda Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri balet truppasi ijro etgan spektaklning ilk taqdimoti Toshkentda, YuNESKO homiyligida bo‘lib o‘tdi hamda professional hamjamiyatning yuksak e’tirofi va bahosiga sazovor bo‘ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bugun qilinayotga ishlarning millat ko‘zgusi bo‘lgan “Lazgi” raqsini bezavol kelajak avlodga yetkazishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avdeyeva L.A. Ozbek Milliy raqsi tarixidan. –Тошкент: Mukarrama Turgunboeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001 y.
2. Авдеева Л.А. Мукарамма Турғунбоеванинг рақси. –Тошкент: Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989 й.
3. Авдеева Л.А. Танцевальное искусство Узбекистана. –Ташкент: Государственное издательство художественной литературы Узбекской ССР, 1966 г.
4. Каримова Р. Ферганский танец (методическое пособие). -Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1973 г.
5. Каримова Р. Хarezмский танец. –Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1975 г.
6. Каримова Р. Бухарский танец (методическое пособие). –Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1977 й.